

«MO'JIZALAR MAVSUMI» AKSIYASINING SHARTLARI VA QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR:

- 1.1. Ushbu aksiya "Ucell" SB ostida uyali aloqa xizmatlarini taqdim etuvchi "Coscom" MChJ XK (keyingi o'rinlarda – Tashkilotchi) tomonidan tashkil etilgan.
- 1.2. «Mo'jizalar mavsumi» aksiyasi – Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziluvchi aksiyadir (keyingi o'rinlarda – Aksiya).
- 1.3. Aksiyada Ucell Kompaniyasining haqi oldindan to'lanuvchi xizmat ko'rsatish tizimi (Prepaid) abonentlari bo'lgan, faqat mazkur Qoidalarining 2.1.1-bandida ko'rsatilgan tarif rejalarida xizmat ko'rsatilayotgan jismoniy shaxslariga ishtirok etishadi.
- 1.4. Aksiyada O'zR rezidenti bo'lmagan abonentlar, Tashkilotchining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, Tashkilotchining dilerlari va ularning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, farzandlari, ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari) ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu shaxslar sovringa da'vogarlik qila olmaydilar. Ular Aksiyada yutib olganlari taqdirda, sovrin Ucell Kompaniyasida qoladi va Tashkilotchi tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra istifoda etiladi.
- 1.5. Aksiya 2018-yil 1-noyabr soat 00:00:00 dan to 2018-yil 31-dekabr soat 23:59:59 gacha davom etadi. Aksiya 2 ta muddatga bo'lingan: aksiyaning 1-muddati – 2018-yil 1-noyabr soat 00:00:00 dan to 2018-yil 30-noyabr soat 23:59:59 gacha; aksiyaning 2-muddati – 2018-yil 1-dekabr soat 00:00:00 dan to 2018-yil 31-dekabr soat 23:59:59 gacha.
- 1.6. Sovrinlar faqat abonent raqamining yuridik egasiga, ya'ni, pasport ma'lumotlariga abonent raqami va abonent shartnomasi rasmiylashtirilgan shaxsga beriladi.
- 1.7. Aksiya ishtirokchisi – bu aksiya shartlarini bajargan abonent raqamidir. Aksiya shartlarini bajarganida abonent raqami shu hisobot davri uchun sovrinlarning yutuqli o'yini ishtirokchisiga aylanadi.
- 1.8. Sovrinni olish uchun abonent O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarosi bo'lishi lozim.
- 1.9. Sovrinning tashqi ko'rinishi reklama materiallarida foydalanilgan suratlardagidan farq qilishi mumkin.

2. AKSIYANING O'TKAZILISH TARTIBI:

2.1. Aksiyaning o'tkazilish shartlari:

2.1.1. Aksiyada quyidagi tarif rejalarida xizmat ko'rsatilayotgan abonentlar ishtirok etadilar:

Tarif rejasining nomi
Fresh
Oddiy
Ko'proq
Diyorim
Aniq
Aniq+
Omadli
Omadli+
Minnatdormiz
Baxtli 25
Baxtli 25+
Azizlarim
Ijobiy
Yaxshi kayfiyat
Zo'r kayfiyat
A'lo kayfiyat
Yangi ijobiy
Active 40
Active 60
Active 90
Omadli BN
Aniq BN
Baxtli 25 BN
Yengil hafta

A'lo kayfiyat BN
Active 40 BN
Active 60 BN
Active 90 BN
Special tarifining "Daqiqalar" opsiyasi
Special tarifining "Megabaytlar" opsiyasi
Special MINI
Special MIX
Special SUPER
Special X
BEST

2.1.2. Imkoniyat olish uchun quyidagi mexanizm qo'llanadi:

A) Aksiyaning amal qilish davrida quyidagi tarif rejalariga ulangan barcha yangi abonentlar:

Oddiy
Diyorim
Minnatdormiz
Baxtli 25
Baxtli 25+
Yaxshi kayfiyat
Zo'r kayfiyat
A'lo kayfiyat
Yangi ijobiy
Active 40
Active 60
Active 90
Azizlarim
Yengil hafta
A'lo kayfiyat BN
Active 40 BN
Active 60 BN
Active 90 BN
Special MINI
Special MIX
Special SUPER
Special X
BEST

B) Aksiyaning amal qilish davrida tegishli (2.1.1-band bo'yicha) tarif rejalarining o'z hisobini bir martalik to'lov bilan 25 000 so'm va undan ortiq miqdorga to'ldirgan barcha abonentlari;

C) Aksiyaning har bir muddatida abonent-ishtirokchi eng ko'pi bilan faqat 1 ta imkoniyat olishi mumkin. Aksiyaning bitta hisobot muddatida olingan imkoniyat aksiyaning boshqa hisobot muddatiga o'tmaydi.

2.1.3. Imkoniyatlarni belgilashda quyidagi mantiq qo'llanadi:

A) Haqi oldindan to'lanuvchi xizmat ko'rsatish tizimi (Prepaid) tarif rejalariga yangi ulanish (2.1.2-band) = 1;

B) Prepaid tarif rejaları (2.1.1-band) abonentlari tomonidan abonent hisobining bir martalik to'lov bilan 25 000 so'm va undan ortiq miqdorga to'ldirilishi = 1;

2.1.4. Abonentga imkoniyat belgilanmaydigan holatlar:

- A) Agarda yangi abonent aksiyaning bitta hisobot muddati davomida 2.1.3-bandning A qismi bo'yicha 1 imkoniyat olsa, u holda shu abonent tomonidan mazkur hisobot muddati mobaynida shu bandning B qismidagi shartning bajarilishida, abonent mazkur hisobot muddatida B qismidagi shartning bajarilishi uchun qo'shimcha imkoniyat olmaydi.
- B) Abonent tomonidan «Mobil avans», «Mobil o'tkazma» xizmatlari yordamida hamda balansni korrektirovkalash vositasida hisobning to'ldirilishi abonent tomonidan aksiya doirasida hisobning to'ldirilishi deb hisoblanmaydi va shu sababli bunda abonentga imkoniyat belgilanmaydi.

2.1.5. Mazkur aksiya doirasidagi imkoniyatlari sonini tekshirish uchun abonent *180# raqamiga USSD-so'rov yuborishi lozim;

2.1.6. Mazkur aksiya doirasidagi *180# USSD-so'rovi narxlanmaydi. Aksiyada ishtirok etish uchun abonent to'lovi – 0 so'm;

2.1.7. Abonent raqami tizimdan (qo'lda yoki avtomatik tarzda) o'chirilgan, Kompaniya bilan tuzilgan Shartnoma bekor qilingan, raqam qayta rasmiylashtirilgan hollarda olingan imkoniyatlar bekor qilinadi va abonent sovrinni olish huquqidan mahrum bo'ladi. Abonent raqami bir abonent (jismoniy shaxs) nomidan boshqa abonent (jismoniy shaxs) nomiga qayta rasmiylashtirilganida har ikkala abonent sovrinni olish huquqidan mahrum bo'ladi. Aksiyaning amal qilish muddati mobaynida takroran ulanishda imkoniyat qaytadan belgilanadi.

2.2. Aksiya g'oliblarining aniqlanishi:

2.2.1. G'oliblar komissiya ishtirokida, jarayonni videoga yozib olgan holda, tasodifiy tartibda aniqlanadi;

2.2.2. Sovrinlar 2.2.3-bandda ko'rsatilgan tartibga muvofiq o'ynaladi.

2.2.3. Quyidagi sovrin jamg'armasi qo'llanadi:

2.2.3.1. Aksiyaning birinchi hisobot muddati (2018-yil 1-noyabr soat 00:00:00 dan to 2018-yil 30-noyabr soat 23:59:59 gacha) davomida olingan imkoniyatlar uchun 11.12.2018-y.dagi yutuqlar o'yini:

Tartib №	Soni	Sovrin
1	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
2	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
3	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
4	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
5	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
6	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
7	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
8	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
9	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
10	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
11	1	GM Spark avtomobili
12	1	GM Spark avtomobili
13	1	GM Spark avtomobili
14	1	GM Spark avtomobili

2.2.3.2. Aksiyaning ikkinchi hisobot muddati (2018-yil 1-dekabr soat 00:00:00 dan to 2018-yil 31-dekabr soat 23:59:59 gacha) davomida olingan imkoniyatlar uchun 11.01.2019-y.dagi yutuqlar o'yini:

Tartib №	Soni	Sovrin
1	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
2	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
3	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
4	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
5	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
6	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
7	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
8	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
9	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
10	1	10 000 000 so'm miqdordagi pul sertifikati
11	1	GM Spark avtomobili

12	1	GM Spark avtomobili
13	1	GM Spark avtomobili
14	1	GM Spark avtomobili

2.2.4. Agar abonent Tashkilotchining ofisida ariza berish orqali aksiyadagi ishtirokini bekor qildirsa, u avtomatik tarzda ishtirokchilar ro'yxatidan chiqariladi va aksiyada ishtirok etish huquqidan mahrum bo'ladi.

2.2.5. Aksiyaning bitta hisobot muddatida sovrin yutib olgan abonent raqami aksiyaning keyingi hisobot muddatida ham ishtirok etish huquqiga ega.

2.3. Sovrinlarning yutuqli o'yini:

2.3.1. Aksiyaning birinchi hisobot muddati uchun sovrinlarning yutuqli o'yini 2018-yil 11-dekabrda bo'lib o'tadi. Bunda yutuqli o'yinda, abonentlarning 2018-yil 1-noyabr soat 00:00:00 dan to 2018-yil 30-noyabr soat 23:59:59 gacha olingan imkoniyatlari ishtirok etadi.

2.3.2. Birinchi hisobot muddati uchun sovrinlarning yutuqli o'yinida quyidagi sovrinlar o'ynaladi: umumiy qiymati 100 000 000 so'm bo'lgan, har biri 10 000 000 so'mlik 10 ta pul sertifikati hamda 4 ta Spark avtomobili;

2.3.3. Ikkinchi yutuqli o'yini 2019-yil 11-yanvarda bo'lib o'tadi. Bunda yutuqli o'yinda, abonentlarning 2018-yil 1-dekabr soat 00:00:00 dan to 2018-yil 31-dekabr soat 23:59:59 gacha olingan imkoniyatlari ishtirok etadi.

2.3.4. Ikkinchi hisobot muddati uchun sovrinlarning yutuqli o'yinida quyidagi sovrinlar o'ynaladi: umumiy qiymati 100 000 000 so'm bo'lgan, har biri 10 000 000 so'mlik 10 ta pul sertifikati hamda 4 ta Spark avtomobili;

2.4. Komissiya:

2.4.1. Har bir yutuqli o'yin vaqtida bir necha kishidan iborat bo'lgan maxsus komissiya qatnashadi va yutuqli o'yin qoidalariga rioya etilishini kuzatib boradi.

3. Aksiya natijalari bo'yicha yutuqlarni olish shartlari va tartibi:

3.1. G'oliblarni taqdirlash aksiyaning natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun davomida bo'lib o'tadi:

3.1.1. Tashkilotchining vakillari Aksiya g'oliblari bilan abonent raqamlari orqali bog'lanib, pasport ma'lumotlari haqidagi axborotlarni olishadi:

3.1.1.1. Aksiyaning birinchi muddatida – 11.01.2019 sanasigacha

3.1.1.2. Aksiyaning ikkinchi muddatida – 11.02.2019 sanasigacha

3.1.2. Agar Tashkilotchining vakillari biror sababga ko'ra aksiya g'olibi bilan ko'rsatilgan vaqtda bog'lana olmasalar, u holda aksiya g'olibining o'zi 28.02.2019 sanasigacha Abonentlarni qo'llab-quvvatlash markazi (Call-Center) yoki Tashkilotchining ofislari orqali Tashkilotchining vakillari bilan bog'lanib, o'z pasport ma'lumotlari haqidagi axborotni va bog'lanish uchun telefon raqamini taqdim etishi lozim bo'ladi;

3.1.3. Sovrin yutib olgan g'olib, 28.02.2019 sanasigacha Tashkilotchiga mazkur qoidalarning 3.6-bandida sanab o'tilgan barcha hujjatlarni taqdim etishi lozim;

3.1.4. Sovrin faqat aksiyada yutgan raqamlarning yuridik (abonent shartnomasida ko'rsatilgan) egalariagina beriladi. Abonent shartnomasida ko'rsatilgan pasport ma'lumotlari va g'olib taqdim etgan pasport ma'lumotlari o'zaro mos kelmasa, sovrin talab qilinmagan hisoblanadi va Tashkilotchi uni topshirishni rad etishga haqli bo'ladi. Bunda sovrinni takroran talab qilish mumkin emas;

3.1.5. Aksiya g'olibining sovrinni olish uchun 28.02.2019 sanasigacha kelmasligi g'olibning sovrinni olishni rad etganligi hisoblanadi.

3.2. G'olib sovrinni olish uchun zarur bo'lgan – mazkur qoidalarning 3.6-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni 28.02.2019 sanasigacha (shu kuni ham) yetkazmasa, sovrin talab qilinmagan hisoblanadi va Tashkilotchi uni topshirishni rad etishga haqli bo'ladi. Bunda sovrinni takroran talab qilish mumkin emas.

3.3. Aksiya g'oliblari har qanday sababga ko'ra sovrinlarni talab qilishmasa yoki olishni rad etishsa, Tashkilotchi aksiya sovrindorlarining umumiy miqdorini tegishli qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda aksiyaning ushbu bandida ko'rsatilgan sovrinlari berilmaydi va Tashkilotchi tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra istifoda etiladi.

3.4. G'olib ushbu qoidalarda ko'zda tutilgan aksiya shartlarini bajarmagan taqdirda, Tashkilotchi aksiya g'olibiga sovrinni taqdim qilishni rad etish huquqiga ega.

3.5. Bitta sovrinning boshqasi bilan almashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3.6. Sovrinlarni topshirishda O'ZR amaldagi qonunchiligiga ko'ra soliqlarni to'lash uchun mas'uliyat g'olibning zimmasiga yuklanadi.

Shu munosabat bilan, g'olib sovrinni olish uchun Tashkilotchining vakiliga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- G'olibning pasporti asli;

- G'olibning STIR guvohnomasi asli;

- Sovrinni olganligi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmaganligi va JSODSni mustaqil to'lashi haqida tilxat;
- G'olibning raqamiga va nomiga rasmiylashtirilgan abonent shartnomasi;
- Bank bilan tuzilgan Shartnoma, bank hisobining raqami va g'olibning plastik kartasiga pul yutug'ini o'tkazish uchun bank rekvizitlari (pul sertifikati yoki avtomobil yutib olgan g'oliblar uchun).

- 3.7.** Aksiya Tashkilotchisi avtomobil yutib olgan g'olibga pul mablag'larini o'tkazib beradi. Pul miqdori GM Uzbekistan Chevrolet SPARK avtomobilining 31.10.2018 y. sanasida rasmiy saytdagi preyskurantda ko'rsatilgan narxiga teng (74 064 275 so'm).
- 3.8.** Aksiya Tashkilotchisi pul sertifikati yutib olgan g'olibning plastik kartasiga pul mablag'larini o'tkazib beradi.
- 3.9.** G'olib barcha kerakli hujjatlarni, shartnomalar va sovrinni olish uchun zarur bo'lgan boshqa ruxsat hujjatlarini mustaqil o'zi olishi lozim. G'olibning va respublika bo'yab unga hamrohlik qiluvchi shaxsning yashash va yo'l xarajatlari bilan bog'liq boshqa barcha chiqimlar ham g'olibning o'z zimmasiga yuklatiladi.
- 3.10.** Aksiya g'olibi ushbu qoidalarining 3.6-bandida ko'rsatilgan barcha hujjatlarni 3.1.3-bandda o'rnatilgan muddatlarda Tashkilotchiga xabar qilishi va taqdim etishi shart.
- 3.11.** Aksiya g'olibining va unga hamrohlik qiluvchi shaxsning safari hamda O'zbekiston hududida bo'lishi vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va Tashkilotchining aybi bilan yuzaga kelmagan har qanday holatlar, baxtsiz hodisa va noxush vaziyatlar uchun javobgarlik Tashkilotchi zimmasida emas. Tashkilotchining mas'uliyati mazkur qoidalarining 3.7 va 3.8-bandlariga muvofiq g'oliblarga pul mablag'larini o'tkazib berish bilan cheklangan.

4. AKSIYANING QO'SHIMCHA SHARTLARI:

- 4.1.** Aksiya haqidagi barcha ma'lumotlarni www.ucell.uz saytidan olish mumkin.
- 4.2.** Aksiya Tashkilotchisi quyidagilar uchun mas'ul emas:
 - 4.2.1.** Ishtirokchilarda Tashkilotchi tomonidan www.ucell.uz saytiga joylangan aksiya shartlari bilan tanishish imkoniyati yo'qligi;
 - 4.2.2.** Ishtirokchilarning o'z ayblariga ko'ra yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra aksiya bo'yicha sovrinlarni olish uchun kerakli ma'lumotlarni/hujjatlarni o'z vaqtida yoki umuman ololmaslik holatlari;
 - 4.2.3.** Aksiya ishtirokchilari tomonidan ushbu qoidalarda ko'zda tutilgan majburiyatlarining o'z vaqtida yoki umuman bajarilmasligi;
 - 4.2.4.** Sovrinlarni talab qilmaganligi yoki rad etganligi holatlarida aksiya g'oliblari ularni ololmasliklari.
- 4.3.** Aksiyada ishtirok etayotib, ishtirokchi ushbu qoidalar bilan to'liq tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi:
 - 4.3.1.** Aksiya g'oliblarining mazkur qoidalarda ko'zda tutilgan tartibda aniqlanishi;
 - 4.3.2.** Aksiya o'tkazilishi mobaynida ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxsning huquqlari buzilishi bo'yicha uchinchi shaxs Tashkilotchiga biror e'tiroz bildirgan holatlarda, ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil hal etish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi;
 - 4.3.3.** Ishtirokchi aksiyada g'olib bo'lgan taqdirda, o'zi haqidagi ma'lumot www.ucell.uz saytiga joylashtirilishi;
 - 4.3.4.** Aksiyadagi ishtiroki haqidagi, shu jumladan radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari uchun reklama intervyularida qatnashish, shuningdek Tashkilotchi va/yoki uning topshirig'iga ko'ra uchinchi shaxslar tomonidan ishtirokchilarning foto va videouratga olinishi. Bulardan tashqari, ishtirokchi qatnashgan foto va videoyozuvlardan keyinchalik foydalanish uchun ishtirokchidan qo'shimcha ruxsat so'ramasdan va biror tarzda rag'batlantirishni amalga oshirmasdan turib (hatto agar bu material reklama xarakterida bo'lsa ham) foydalanilishi.
 - 4.3.5.** Sovrinni olish bilan bog'liq har qanday xarajatlar uchun mas'uliyatni aksiya g'oliblari o'z zimmalariga oladilar.
- 4.4.** Tashkilotchi ushbu qoidalarda ko'zda tutilganidan tashqari holatlarda aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralarga va boshqa muloqotlarga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 4.5.** Aksiya tashkilotchisi tegishli ma'lumotni Tashkilotchi saytiga (www.ucell.uz) joylagan holda, istalgan paytda aksiya qoidalarini o'zgartirishga haqli. Aksiya ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan saytda (yuqorida ko'rsatilgan havola bo'yicha) aksiya qoidalaridagi yangilanishlarni mustaqil kuzatib borishlari va tegishli o'zgarishlarni tekshirishlari lozim.
- 4.6.** Aksiyaning o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilishi lozim. Tinch yo'l bilan kelishuvga erishilmagan hollarda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining tegishli sudida ko'rib chiqiladi.